



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева</b> Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
<b>Laziz Niyozovich Xudoyorov</b> Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova</b> Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов</b> Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
<b>Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov</b> Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
<b>Ирода Аминжонова Умурзакова</b> Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
<b>Botir Hayat Muradov</b> Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
<b>Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov</b> Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Ойдин Давроновна Хамракулова</b> Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
<b>Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev</b> Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
<b>Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva</b> Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Shaxnoza Ergashevna Samandarova</b> Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

4. Sobirov, O.O. “Improvement of management accounting in economic entities”. Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation on Economic Sciences. Tashkent. TMI (2022).

<b>О.Собиров</b>	<b>O.Sobirov</b>
<b>Теоретические основы организации управленческого учета</b>	<b>Theoretical foundations of the organization of management accounting</b>
<p><b>Аннотация.</b> В статье рассматриваются теоретические основы организации управленческого учета в хозяйствующих субъектах, рассматриваются и анализируются исследования и подходы зарубежных и отечественных экономистов, проводивших научные исследования в данной области. Также в результате критического анализа мнений ученых мира и нашей республики относительно концептуальной структуры управленческого учета изучены различные точки зрения и соображения по его разделению на составляющие, даны выводы и научные предложения, направленные на их решение.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> управленческий учет, затраты, производство, контроль, отчетность, финансовый учет, центры ответственности, экспорт, продукция, калькуляция себестоимости.</p>	<p><b>Abstract.</b> The article studies the theoretical foundations of the organization of management accounting in economic entities, reviews and analyzes the research and approaches of foreign and domestic economists who have conducted scientific research in this area. Also, as a result of a critical analysis of the opinions of scientists from around the world and our country on the conceptual structure of management accounting, various opinions and considerations were studied in dividing it into components, and conclusions and scientific proposals were given aimed at solving them.</p> <p><b>Keywords:</b> management accounting, costs, production, control, reports, financial accounting, responsibility centers, export, product, costing.</p>

**Xurshidjon Nazrullo o‘g‘li Abdullayev** – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” MTU Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

### **EKOLOGIK AUDIT O‘TKAZISHNING USULLARI VA TARTIB-QOIDALARI**

<p><b>Annotasiya.</b> Ushbu maqolada O‘zbekistonda ekologik audit o‘tkazish bo‘yicha ilmiy-nazariy asoslari auditorlik faoliyatida so‘ngi paytlarda qo‘llaniladigan usullar hamda sohaning rivojlanish muammolari va istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi. O‘zbekistonda ekologik auditning o‘tkazilish asoslarini belgilovchi huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajriba o‘rganilgan. Shu bilan birga, ekologik auditning xalqaro standartlarga muvofiqligi, korxonada imidjini shakllantirishda va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash masalalari ham turli metodlar yordamida o‘rganilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> ekologik audit, induktiv va deduktiv usullar, protseduralar, yashil iqtisodiyot, ekologik monitoring.</p>
---

**Kirish.** Ekologiya va iqtisodiy munosabatlarni samarali tartibga solishga imkon beradigan va ekologiya xavfsizlik talablarini ta‘minlashga qaratilgan yangi vositalardan biri bu ekologiya auditidir. Ekologiya audit atrof-muhitni boshqarish tizimining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, atrof-muhit samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholashni, tahlil qilish va tavakkalchiliklarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlarini ekologiya xavfsizlik tamoyillariga rioya qilish asosida tadbirkorlik faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish vositasi sifatida ekologiya auditni rivojlanishining yangi yo‘nalishi ochib berilmoqda. Moliyaviy va ekologiya audit kapitalini jalb qilish, investitsiyalarni rivojlantirish, nou-xau joriy etish, resurslarni tejash, ekologiya xarajatlarni kamaytirishda moliyaviy va ekologiya auditni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ekologiya xarajatlari auditini Auditorlik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lmagan, Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasining O‘zbekiston Respublikasida e‘lon qilish to‘g‘risidagi ruxsatnomasi asosida auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan auditorlik faoliyati standartlari asosida amalga oshirilishi bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ -

677- son Qonunining “Auditorlik faoliyati standartlari” deb nomlangan 9-moddasida o‘z aksini topgan<sup>1</sup>. Natijada biznes subyektlari moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishni, Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi va xalqaro standartlari bo‘yicha kengashi tomonidan e‘lon qilinadigan auditning xalqaro standartlari hamda boshqa turdosh xizmatlarning xalqaro standartlariga uyg‘unlashuviga xizmat qiladi.

E. Bloker ekologik auditni investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy axborot manbai sifatida ko‘radi.

M.D. Kas “texnologik audit konsepsiyasi orqali ekologik axborot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini asoslaydi”<sup>2</sup>.

S.Yuldasheva “ishlab chiqarish korxonalarida ekologik monitoring natijalarini elektron bazaga joylashtirish orqali audit samaradorligini oshirishni”<sup>3</sup> taklif etadi.

Amaliyotda ekologiya yoki ijtimoiy hisobotlar, barqarorlik to‘g‘risidagi hisobotlarda korxonaning ekologiya faoliyatga doir axborotni taqdim etish uchun standart yondashuv mavjudligi foydalanuvchilarga uni topishni osonlashtirishi va vaqt o‘tishi bilan hisobot beruvchi kompaniya ma‘lumotlarining taqqoslanishini ta‘minlashga, shuningdek, bir xil sohadagi korxonalar ko‘rsatkichlarining taqqoslanishini ta‘minlashga yordam beradi.

**Tadqiqot usullari.** Ushbu maqolada tadqiqot abstrakt-tanqidiy fikrlash va miqdoriy usullarga asoslangan. Shuningdek, muallif tomonidan tanqidiy fikrlash va tahlil orqali vaziyatlar o‘rganilingan.

**Tahlil va natijalar.** Ekologiya va moliyaviy auditning o‘xshashliklari quyidagicha: mustaqillik, obyektivlik, auditorlarning yuqori professional darajasi; qabul qilingan ma‘lumotlarning maxfiyligi; faoliyatning tadbirkorlik xarakteri; mijozga keng ko‘lamli konsalting auditorlik xizmatlarini taqdim etish qobiliyati; auditning ixtiyoriy shakllarini majburiylaridan ustunligi; mijozga dastur samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo‘lgan muhim qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan ta‘minlash; tekshiriladigan faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash; qo‘shimcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita iqtisodiy foyda olish imkoniyati; tekshirilayotgan faoliyatning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini majburiy baholaydi.

Ekologiya auditni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, shu jumladan, boshqaruv tuzilmasini shakllantirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ekologiya xarajatlarni hisobga olishda ekologiya standartlar muhim o‘rin egallaydi. Ekologiya auditning boshqa audit turlaridan asosiy farqi shundaki, u har doim katta vaqt va kuch sarflash bilan birga keladigan korxonalarining tabiiy resurslardan foydalanishdagi faoliyati va atrof-muhitning ifloslanishi to‘g‘risidagi taxminiy ma‘lumotlarning to‘planishi, tahlil qilinishi va hujjatlashtirilishini talab qiladi.

Ekologiya audit, ushbu munosabatlarni birlashtirishda, atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy va iqtisodiy omillarini o‘z ichiga oladi. Bu atrof-muhitni muhofaza qilish tuzilmalari uchun eng maqbul variantni tanlashga, atrof-muhitni muhofaza qilish vositalarining holati va ishlash darajasi ustidan axborot-tahliliy nazoratni tashkil etishga, rejalashtirilgan texnik va texnologik yaxshilanishiga iqtisodiy baho berishga imkon beradi.

Ekologiyani tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yuqori organlar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarning murakkab ko‘p darajali tizimi hisoblanadi. Ekologiya audit, ushbu munosabatlarni birlashtirishda, atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy va iqtisodiy omillarini o‘z ichiga oladi.

Ekologik audit tadqiqotining o‘ziga xosligi qo‘llaniladigan usul va tartiblarning mazmuniga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi hamda ularning doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Ekologik audit obyektlarini o‘rganishning metodologik asosi “dialektik usul” hisoblanadi. Ushbu yondashuv doirasida “deduktiv” va “induktiv” metodlar qo‘llaniladi.

Deduktiv metodda tadqiqot avvalo umumiy nazariy qoidalar va tamoyillarga asoslanib

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun. 2021.25 fevral. O‘RQ-677-son. 9-modda.

<sup>2</sup> Кац М.Д. Технологический аудит в промышленности. – Киев: Наукова думка, 2001. – 290 с.

<sup>3</sup> Юлдашева.С.Х. Совершенствование учёта и аудита экологических затрат на промышленных предприятиях: автореф. дис. ...канд. экон.наук. Тошкент, 2011. с. 24.

olib boriladi, soʻngra obyektning tizimdagi oʻrni va oʻziga xos xususiyatlarini belgilovchi jihatlari, sifatlari va boshqa tavsiflari oʻrganiladi. Deduktiv metod asosan korxonaning ekologik menejment tizimini, uning maqsad va vazifalarining korxonaga ekologik siyosatiga muvofiqligini oʻrganishda; ekologik hisob tizimining tashkil etilishi va ushbu tizimlarning oʻzaro samaradorlik darajasini baholashda qoʻllaniladi.

Induktiv metodga koʻra esa, obyektning tadqiqi bosqichma-bosqich, xususiyan umumiyga qarab amalga oshiriladi. Bu yondashuvda umumiy xulosalar koʻplab kuzatuvlar va lokal natijalar asosida shakllanadi. Induktiv metod yordamida alohida jarayon va hodisalarga eʼtibor qaratish mumkin: masalan, texnologik jarayon bosqichlari, asosiy vositalar obyektlari, ishlab chiqarish va isteʼmol chiqindilari, shuningdek, ekologik xarajatlar hisobi kabi alohida boʻlimlar. Aniqlangan kamchiliklar asosida umumlashtirish, ilmiy xulosalar chiqarish va tegishli takliflarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Ekologik audit amaliyotida, odatda, “induktiv metod” keng qoʻllaniladi. Bu, avvalo, ekologik audit obyektlarining xususiyatlari, auditning maqsadlari va ekotahlil jarayonining oʻziga xosligi bilan izohlanadi. Quyidagi 1-jadvalda deduktiv va induktiv metodlarning ekologik auditda qoʻllanilishi izohlangan.

1-jadval

**Deduktiv va induktiv metodlarning ekologik auditdagi qoʻllanilishi<sup>1</sup>**

<b>Mezonlar</b>	<b>Deduktiv metod</b>	<b>Induktiv metod</b>
<b>Tadqiqot yoʻnalishi</b>	Umumiydan xususiya qarab	Xususiyan umumiyga qarab
<b>Metodologik asos</b>	Nazariy qoidalar va umumiy tamoyillardan kelib chiqadi	Kuzatuvlar, tajribalar va lokal natijalardan kelib chiqadi
<b>Qoʻllanilish sohasi</b>	Korxonaga ekologik menejment tizimi, uning maqsad va vazifalarini ekologik siyosat bilan muvofiqligini baholash	Texnologik jarayon bosqichlari, ishlab chiqarish va isteʼmol chiqindilari, ekologik xarajatlar hisobi kabi xususiyan obyektlar
<b>Afzalliklari</b>	Tizimli yondashuvni taʼminlaydi, umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi	Konkret jarayon va obyektlarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi, amaliy muammolarni tezda aniqlash imkonini beradi
<b>Kamchiliklari</b>	Baʼzan nazariy mulohazalar amaliy jarayonga toʻliq mos kelmasligi mumkin	Xulosalar koʻplab kuzatuvlar asosida shakllanadi, umumlashtirish uchun koʻproq vaqt talab etadi
<b>Ekologik auditdagi ahamiyati</b>	Ekologik menejment tizimining samaradorligi va maqsadlarga muvofiqligini baholashda muhim	Obyektlarning ekologik holatini, chiqindilarni, xarajatlar hisobini tahlil qilishda asosiy metod sifatida keng qoʻllaniladi

Jadvalda ekologik audit tadqiqotida keng qoʻllaniladigan deduktiv va induktiv metodlarning oʻziga xos tomonlari taqqoslab berilgan. Deduktiv metod, odatda, umumiy nazariy qoidalar va konsepsiyalardan boshlab, ularni konkret obyektlarga tatbiq etish orqali obyektning tizimdagi oʻrnini, maqsad va vazifalarga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Bu metod koʻproq ekologik menejment tizimini, uning samaradorligini va ekologik siyosatga uygʻunligini baholashda qoʻllaniladi.


Induktiv metod esa, xususiyan umumiyga qarab tadqiqot olib borish imkonini beradi. U koʻplab kuzatuvlar, lokal natijalar va obyektlarga oid konkret maʼlumotlarga tayanib, umumiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ekologik audit amaliyotida koʻproq aynan induktiv metod qoʻllaniladi, chunki u ishlab chiqarish jarayonlari, chiqindilar, asosiy vositalar va ekologik xarajatlar hisobini oʻrganishda samarali hisoblanadi.

Oʻylashimizcha, deduktiv metod nazariy va tizimli tahlilga, induktiv metod esa amaliy va obyektga yoʻnaltirilgan tahlilga koʻproq mos keladi. Ikkala metodning uygʻun qoʻllanilishi esa

<sup>1</sup>Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

ekologik audit natijalarining haqqoniyligini va ishonchliligini ta’minlaydi.

Ekologik auditda qo‘llaniladigan usul va tartiblarning xilma-xilligini shartli ravishda uch guruhga birlashtirish mumkin (1-rasm).



**1 – rasm. Ekologik auditda qo‘llaniladigan usullar tizimi<sup>1</sup>**

Ekologik audit jarayonida qo‘llaniladigan metodik usullar va protseduralar turli guruhlariga bo‘linadi. Bu usullar korxon faoliyatini atroflicha baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va samarali takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. 1-rasmda ekologik audit metodlarining uchta asosiy guruhi keltirilgan.

1-guruh: Miqdoriy va sifat baholash usullari. Bu guruhga ko‘zdan kechirish, qayta sanash, hujjatlarni tekshirish, hisob qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, kuzatib borish kabi klassik usullar kiradi. Masalan, toksik chiqindilarni inventarizatsiya qilish nafaqat ularning mavjudligini tasdiqlash, balki saqlanish sharoitlari, hisob yuritilishi va hujjatlashtirish tartibini ham aniqlash imkonini beradi.

2-guruh: Analitik protseduralar. Ushbu guruh metodlari yordamida ko‘rsatkichlar turli yo‘nalishlarda solishtiriladi. Masalan, hisobot davrlari o‘rtasida, rejadagi ko‘rsatkichlar bilan yoki o‘rtacha qiymatlar bilan taqqoslash orqali iqtisodiy-ekoindikatorlarning o‘zgarish dinamikasi baholanadi. Analitik protseduralar ekologik auditda sabab-oqibat aloqalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

3-guruh: Maxsus metodlar. Bunga nostandart vazifalarni hal etishga qaratilgan usullar kiradi. Jumladan, matritsalar tuzish, graf modellar (oragraflar) va matematik modellashtirish

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

usullari ekologik majburiyatlarni baholashda qo‘llaniladi. Bu yondashuv obyektlarning o‘tgan, hozirgi va kelajakdagi holatini tahlil qilishga, hamda ekologik audit jarayonini mantiqiy yakunlashga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, ekologik audit metodlari uch guruhdan iborat bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Miqdoriy va sifat usullari obyektning mavjud holatini aniqlashga, analitik protseduralar jarayonlarni taqqoslash va tahlil qilishga, maxsus metodlar esa strategik qarorlar qabul qilish uchun keng qamrovli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tadqiqotlarimiz natijasida ekologik audit – bu korxonaga yoki tashkilotning atrof-muhitga ta‘sirini baholash, ekologik qonunchilik va standartlarga muvofiqligini aniqlash, hamda ekologik menejment tizimini takomillashtirishga qaratilgan jarayon degan xulosaga keldik. Uni amalga oshirishda turli xil usullar qo‘llaniladi. Masalan, hujjatlarni tahlil qilish orqali normativ-huquqiy hujjatlar va statistik hisobotlar o‘rganiladi, monitoring va kuzatuv yordamida ishlab chiqarish jarayonlaridagi ifloslanishlar hamda resurslardan foydalanish real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Matematik-statistik usullar asosida emissiyalar, chiqindilar va boshqa ko‘rsatkichlar hisoblanadi va ular normativlar bilan solishtiriladi. Shu bilan birga, so‘rov va suhbatlar orqali korxonaga xodimlari va mutaxassislarining fikrlari olinadi, vizual ko‘zdan kechirish orqali ishlab chiqarish obyektlari joyida o‘rganiladi. Yakuniy bosqichda esa ekspert baholash usuli yordamida mustaqil mutaxassislarining xulosalari olinadi. Quyidagi 2 - jadvalda ekologik audit usullari va ularning qo‘llanish maqsadi batafsil keltirilgan. Bu usullar bir-birini to‘ldirib, korxonaning ekologik faoliyatini har tomonlama yoritib beradi.

2-jadval

**Ekologik audit usullari va ularning qo‘llanish maqsadi<sup>1</sup>**

<b>№</b>	<b>Ekologik audit usullari</b>	<b>Qo‘llanilish maqsadi</b>
1.	Hujjatlarni tahlil qilish	Normativ-huquqiy va hisobot hujjatlarini solishtirish
2.	Monitoring va kuzatuv	Ifloslanish va resurslardan foydalanishni real kuzatish
3.	Matematik-statistik usullar	Ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish
4.	So‘rov va suhbatlar	Xodimlar va mutaxassislar fikrini olish
5.	Vizual ko‘zdan kechirish	Jarayonlar va obyektlarni joyida ko‘rish
6.	Ekspert baholash	Mutaxassislarining mustaqil xulosasi

Ekologik audit jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Avvalo, tayyorlov bosqichi o‘tkazilib, audit dasturi va vazifalari belgilanadi. So‘ngra axborot to‘plash jarayonida korxonaning ekologik hujjatlari, chiqindilar bo‘yicha hisobotlari va boshqa tegishli ma‘lumotlar yig‘iladi. Keyingi bosqichda audit jarayoni amalga oshiriladi, ya‘ni ishlab chiqarish hududlari ko‘zdan kechiriladi, monitoring natijalari tekshiriladi va suhbatlar o‘tkaziladi. Olingan ma‘lumotlar asosida tahlil va baholash bosqichi tashkil etilib, mavjud ekologik muammolar va xavf omillari aniqlanadi. Natijalar asosida hisobot tuziladi, unda korxonaning ijobiy va salbiy jihatlari bilan bir qatorda, tavsiya etiladigan tuzatish choralariga ham o‘rin beriladi. Oxirgi bosqichda nazorat ishlari amalga oshirilib, berilgan tavsiyalarning bajarilishi va samarasi kuzatib boriladi. 2-rasmda ekologik audit jarayonining bosqichlari izchil tartibda ko‘rsatilgan bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshiriladi.

Umuman olganda, ekologik auditning usullari va tartib-qoidalari xalqaro (ISO 14001, ISO 19011, EMAS) hamda milliy qonunchilik talablariga asoslanadi. O‘zbekistonda bu borada “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Ekologiya qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ekologik auditning usullari va tartib-qoidalari korxonalarda atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Hujjatlarni tahlil qilish, monitoring, matematik-statistik hisoblashlar, suhbat va intervyular, vizual kuzatish hamda ekspert baholash usullari bir-birini to‘ldirgan holda korxonaga faoliyatining ekologik samaradorligini to‘liq ochib beradi. Audit jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi – tayyorlov, axborot yig‘ish, tekshiruv, tahlil, hisobot va nazorat ishlari – natijalarning obyektivligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi



4 – rasm. Ekologik audit jarayonining bosqichlari<sup>1</sup>

Xalqaro standartlar (ISO 14001, ISO 19011) va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida shakllantirilgan tartib-qoidalar ekologik auditning huquqiy va metodologik poydevorini yaratadi. Bu esa, bir tomondan, korxonalarni ekologik xavflarni kamaytirishga, resurslardan oqilona foydalanishga undasa, ikkinchi tomondan, ekologik menejment tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, ekologik audit usullari va tartib-qoidalarining izchil qo‘llanilishi ekologik xavfsizlikni ta’minlash, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish hamda korxonalarning ijobiy “yashil imiji”ni shakllantirishda strategik ahamiyatga ega. Ekologik audit moliyaviy audit bilan o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da (masalan, mustaqillik, obyektivlik va maxfiylik tamoyillari), uning o‘ziga xos farqlari – atrof-muhitga ta’sirni baholash, resurslardan foydalanishni nazorat qilish va ekologik xavflarni aniqlashda namoyon bo‘ladi. Deduktiv va induktiv metodlarning taqqosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, induktiv yondashuv amaliy jarayonlarda ko‘proq samarali, chunki u xususiyan umumiyga qarab tahlil qilishga imkon beradi va ekologik kamchiliklarni tezda aniqlashga yordam beradi. Ekologik audit usullari uch guruhga (miqdoriy-sifat baholash, analitik protseduralar va maxsus texnikalar) bo‘linib, ularning uyg‘un qo‘llanilishi korxonalarning ekologik menejment tizimini takomillashtirishga, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishga va atrof-muhit xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston qonunchiligi (jumladan, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun va “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun) va xalqaro standartlar (ISO 14001, ISO 19011, EMAS) asosida ekologik auditning rivojlanishi mamlakatda barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim omili sifatida ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ekologik audit nafaqat ekologik xarajatlarni kamaytirish va resurslarni tejashga, balki korxonalarning imidji va investitsiya jozibadorligini oshirishga ham hissa qo‘shadi. Biroq sohaning rivojlanish muammolari – standartlarning to‘liq joriy etilmaganligi, mutaxassislar taqchilligi va texnologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi – kelgusida hal etilishi lozim deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun. 2021.25 fevral. O‘RQ-677-son. 9-modda. <https://lex.uz/docs/-5307886?ONDATE=12.02.2025> sayti ma’lumotlari.
2. Кац М.Д. Технологический аудит в промышленности. – Киев: Наукова думка, 2001. – 290 с.

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

3. Юлдашева С.Х. Совершенствование учёта и аудита экологических затрат на промышленных предприятиях: автореф. дис. ...канд. экон.наук. Тошкент, 2011. с. 24.

<p><b>Х.Абдуллаев</b></p> <p><b>Методы и процедуры проведения экологического аудита</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье проведен научный анализ научно-теоретических основ проведения экологического аудита в Узбекистане, методов, применяемых в последнее время в аудиторской деятельности, а также проблем и перспектив развития отрасли. Изучены правовые документы, определяющие основы проведения экологического аудита в Узбекистане, а также международный опыт. При этом также изучались вопросы соответствия экологического аудита международным стандартам, формирования имиджа предприятия и укрепления экологической безопасности с помощью различных методов.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> экологический аудит, индуктивные и дедуктивные методы, процедуры, зеленая экономика, экологический мониторинг.</p>	<p><b>Kh.Abdullaev</b></p> <p><b>Methods and procedures for conducting an environmental audit</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article provides a scientific analysis of the scientific and theoretical foundations of environmental auditing in Uzbekistan, methods used recently in auditing, as well as problems and prospects for the development of the industry. The legal documents defining the principles of environmental audit in Uzbekistan, as well as international experience, have been studied. At the same time, the issues of compliance of environmental audit with international standards, the formation of the company's image and the strengthening of environmental safety were also studied using various methods.</p> <p><b>Keywords:</b> environmental audit, inductive and deductive methods, procedures, green economy, environmental monitoring.</p>
---	---

**Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva** – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti

### CHAKANA SAVDO AYLANMASINING MOHIYATI VA RIVOJLANISHI

**Annotatsiya.** Maqolada chakana savdo aylanmasining mohiyati, uning turlari, subyektlari, davrlar maboynida savdo aylanmasining rivojlanishi, savdo aylanmasining tarkibi, hududlar bo'yicha o'zgarishlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** chakana savdo, savdo aylanmasi, yirik savdo korxonalari, YaTTlar, uyushmagan savdo, hududlar, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik mahsulotlari, chorvachilik.

**Kirish.** Chakana savdo iqtisodiyotning muhim sohalaridan biridir. Chakana savdo natijasida insonlar o'z ehtiyojlariga kerakli mahsulotlar, tovarlarni sotib olib quvvatlarini saqlab, hayot kechiradilar, ishlab chiqarish korxonalari esa mahsulotlarni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarini pul shaklida ma'lum darajada ko'paytirib ( foydasi bilan) qoplab, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zanjirining uzliksizligini ta'minlaydilar. Chakana savdo tovar aylanmasi muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, yakuniy iste'mol uchun tovarlarni savdo shahobchalaridan aholiga, ommaviy iste'mol uchun muassalarga sotishdir. Savdo shahobchalaridan tovarlarni iste'molchilarga sotish naqd pulga, plastik kartochkalar, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali naqd pulsiz amalga oshirilishi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili:** Savdo xizmatlar sohasining qadimiy turlaridan bo'lib, savdoning mohiyati va ahamiyati haqida juda ko'p olimlar ilmiy maqolalar, monografiya va darsliklar yozishgan. Bu borada olimlarimizdan B.A.Abdukarimov, M.K.Pardayev, U.X.Xudoyberdiyev, F.H.Qudratov, N.Tuxliyev, Y.O'rinboyeva kabilarni e'tirof etish lozim. Lekin ilmiy adabiyotlarda savdo xizmatlarining nazariy asoslari, ahamiyati va hozirgi zamondagi rivojlanish omillari yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola savdo xizmatlarining muhim ahamiyatini va zamonaviy rivojlanish omillarini tahlil qilib beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda mantiqiy fikrlash, jamlash, guruhlash, taqqoslash kabi iqtisodiy tahlilning usullaridan foydalanildi.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.